



ILG'OR PEDAGOG

ILMIY JURNALI

INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



2025

Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



ILG'OR PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI
TO'PLAMI

2- JILD, 3 - SON
2025



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025

Y.G'.G'ULOMOV VA UNING ILMIY MEROSI.**Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li**

Farg'ona Davlat Universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs 23-71 guruh talabasi

modillovv17gmail.com

Tel; 91 206 06 88

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning mashhur tarixshunosi va olimi Y.G'.G'ulomovning ilmiy faoliyatini va uning tarixshunoslikka qo'shgan ulkan hissasini tahlil etiladi. Muallif, Y.G'.G'ulomovning ilmiy izlanishlari, asarlari, tarixiy tadqiqotlar sohasidagi o'rni va zamonaviy tarixshunoslikka ta'sirini o'rganadi. Maqolada G'ulomovning tarixiy manbalarni o'rganishdagi innovatsion yondoshuvlari, O'zbekiston tarixi bo'yicha ilgari surgan nazariy g'oyalari, shuningdek, uning ilmiy merosining milliy va xalqaro ilm-fan rivojida ahamiyati keltiriladi. Y.G'.G'ulomovning ilmiy merosi tarixshunoslik, madaniyat va tarixiy tadqiqotlarning metodologiyasi sohasida katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asarlari zamonaviy tarixshunoslarga o'rganish va yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim manba hisoblanadi. Maqola shuningdek, uning ilmiy faoliyatining bugungi kunda ham davom etayotgan o'rni va ta'sirini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: Y.G'.G'ulomov, Fanlar Akademiyasi, Afrosiyob, M.Masson, A.Yakubovskiy, Xorazm, Samarqand, Oqmachit, Zarafshon, Zamonbobo.

Аннотация. В статье анализируется научная деятельность Ю.Г. Гулямов, известный историк и ученый Узбекистана, и его большой вклад в историографию. Автор изучает Ю.Г. Научные исследования, труды Гулямова, его роль в области исторических исследований и его влияние на современную историографию. В статье представлены новаторские подходы Гулямова к изучению исторических источников, выдвинутые им теоретические идеи по истории Узбекистана, а также значение его научного наследия в развитии отечественной и мировой науки. Научное наследие Ю.Г. Гулямов имеет большое значение в области историографии, культуры, методологии исторического исследования, а его труды являются важным источником для современных историков для изучения и проведения новых научных исследований. В статье также подчеркивается роль и влияние его научной работы, которая продолжается и сегодня.

Ключевые слова: Ю.Г.Гуломов, Академия наук, Афросиаб, М.Массон, А.Якубовский, Хорезм, Самарканд, Акмачит, Зарафшон, Замонбобо.

Abstract. This article analyzes the scientific activity of the famous historian and scientist of Uzbekistan Y.G.Gulamov and his great contribution to historiography. The author studies Y.G.Gulamov's scientific research, works, his role in the field of historical research and his influence on modern historiography. The article presents Gulyamov's innovative approaches to the study of historical sources, the theoretical ideas he put forward on the history of Uzbekistan, as well as the significance of his scientific heritage in the development of national and international science. The scientific heritage of Y.G.Gulamov is of great importance in the field of historiography, culture and methodology of historical research, and his works are an important source for modern historians to study and conduct new scientific research. The article also highlights the role and influence of his scientific activity that continues today.

Keywords: Y.G.Gulomov, Academy of Sciences, Afrosiyob, M.Masson, A.Yakubovsky, Khorezm, Samarkand, Aqmachit, Zarafshon, Zamonbobo.

KIRISH

O'zbek tarixshunosligi taraqqiyotida muhim o'rin egallagan olimlardan biri bu – Yaxyo G'ulomovdir. U o'zining hayoti davomida O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixiga oid muhim mavzularni chuqur o'rganib, tarixshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Ayniqsa, qadimgi sug'orish tizimlari, shaharsozlik madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar hamda arxeologik yodgorliklar asosida olib borgan tadqiqotlari bilan ajralib turadi. G'ulomovning ilmiy merosi nafaqat tarixiy faktlarni ochib berish, balki ularni ilmiy asosda tahlil qilish, zamonaviy ilmiy metodlar orqali tushuntirish borasida ham katta ahamiyatga ega. Uning ko'plab asarlari o'z davrining tarixiy tafakkurini aks ettirgan bo'lib, hozirgi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Ushbu maqolada Y.G.G'ulomovning ilmiy faoliyati, uning asosiy asarlari va tarixshunoslikdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, uning ilmiy yondashuvlari va merosining bugungi tarixiy izlanishlarga ta'siri yoritiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yahyo G'ulomov 1908 – yilning 1 – may kuni Toshkentning Shayhontohur dahasidagi Oqmachit mahallasida tug'ilgan. Bo'lajak arxeologning otasi G'ulomxon qadim Shoshdagi dovuq taratgan Xo'ja Ahror madrasasida mudarrislik qilgan, onasi Soraxon mahalladagi maktabda qizlarga saboq berardi. Ana shunday ilmga ixlos qo'ygan oilada voyaga yetgan Yahyo bolaligidan zehnli bo'lib o'sdi. Biroq oila katta bo'lib, G'ulomxonning Eshonxon, Odilqori, Yahyo, Said Ahmad, Akrom va Roqiya ismli oltita farzandlari bilan birga opasidan yetim qolgan to'rtta yoshgina jiyanlariyam ular qaramog'ida edi. Shu bois, qolaversa, G'ulomxon mudom madrasadagi ishlar bilan band bo'lganligi sababli, xonadonga qarashli bog'ning xo'jalik yumushlari farzandlari zimmasida bo'lgan. Yahyo ana shunday yumushlar

bilangina band bo'lib qolmay, ilmga ixlos qo'ydi. Dastlab ota-onasidan saboq olgan bo'lsa, keyin "Namuna" nomli maktab-internatda Lutfilla qori, Xatibzoda, Ismoil muallim, Haydar Nosiriy, Akbar domla, Yusuf va Eson afandi kabi shu davrdagi eng mo'tabar o'qituvchilardan ta'lim oldi. Bu maskanda u Oybek, Buyuk Karimov, Fotih Orifov, Abdulla Boboxonov, Iso Razzoqov, Yoqub Aliev, Abdulla Rahimov, Saidazim Usmonov kabi kelajakdagi o'zbek xalqining yetuk ziyolilari bo'lib yetishgan ilmu fan namoyondalari bilan bir guruhda ta'lim tarbiya oldi. Ayni paytda Yahyo ijodga bo'lgan ishtiyoqi sabab "Bulutlar", "Turfa folbin", "Gilam jallobi" singari hajviyalarini maktabning devoriy gazetasida chop etdirdi.

O'smirlikning zavqli onlarini shunday xushnudlik bilan o'tkazgan Yahyo G'ulomov, 1927-1930-yillarda Samarqanddagi o'zbek davlat pedagogika akademiyasi ijtimoiy va iqtisodiy bo'limida tahsil oladi. Bu dargohda u Po'lat Soliev, Abdurauf Fitrat, Vasiliy Vyatkindek o'z davrining ilg'or ziyolilaridan saboq oldi, Muso Saidjonov bilan hamkorlik qilib, ularga ixlos qo'ydi.

Yuqorida sanab o'tilgan olimlar Yahyo G'ulomovni arxeologiyadek sehrli kasbga oshno tutinishiga sabab bo'lishdi. Dastlabki arxeologik tadqiqotlari ham Yahyoning aynan Afrosiyobda, 1928-1929-yillarda bo'lib o'tdi. 1931-yilda u Toshkentga qaytib xalq komissarlari kengashi huzuridagi tarixiy yodgorliklarni saqlash va ilmiy o'rganish qo'mitasida ish boshlaydi. Bu dargohda u M.Masson, A.Yakubovskiy rahbarligida 1933-yildan Termiz va Zarafshondagi qadim obidalarda izlanishlar olib bordi.

Yahyo G'ulomov arxeologiyada ma'lum bir tajriba, ko'nikma orttirgach, Turdi Mirg'iyosov hamda kasbdoshi Rashid Nabievlar bilan 1936-yilda Xorazmda o'zining mustaqil tadqiqotlarini boshlab yubordi. 1937-yildan boshlab, ular safiga arxeolog A.I.Terenojkin hamda arxitektor B.Zasipkinlar qo'shildi. Xususan, 1937-yil yozida Yahyo G'ulomov qadimgi kanal izlarini xaritaga tushirish maqsadida, yolg'iz o'zi Norinjonqaladan chiqib, uchrayotgan arxeologik materiallarga qiziqqanicha, guruh joylashgan yerdan 10-12 km uzoqqa borib qoladi. Qolaversa, yo'lda uchragan noyob topilmalar bilan arxeolog yelkasidagi sumka tobora og'irlashib borar, yo'l uchun na non, na suv olingandi. Buning ustiga jazirama issiqdan, arxeolog charchagani, chanqaganidan ortga qaytarkan, adashib Teshikqa'la tomon borib qoladi.

Yahyo G'ulomovning asosiy tadqiqotlari, fundamental ilmiy ishlari Xorazm bilan bog'liq edi. Shu bois u urushdan ilgari arxeologik tadqiqot ishlarini qo'lyozma asarlardagi voqeliklar jarayoni bilan taqqoslab chiqishga intildi. Ma'lumki, 1941-yilda boshlangan urush sabab O'zbekistonga ko'plab keksalar, bolalar, zavod-fabrikalar, 31 ta oliy o'quv yurti, 7 ta harbiy akademiya bilan birga ijod va ilm ahli ham evakuatsiya qilib ko'chirilgandi. Ijodkorlar orasida A.Axmatova, N.Virta, S.Gorodetskiy, A.Deych, K.Zelenskiy, YA.Kolas, B.Lavrenov, V.Lugovskoy, N.Pogodin, I.Sel'vinskiy, A.Tolstoy, V.Yan kabi ko'plab o'sha davrning mashhur yozuvchi, shoir, dramaturglari bor edi.

O'zbek ijodkorlari bilan boshlangan hamkorlik va do'stlik natijasida Oybek va A.Deych "Alisher Navoiy" ocherkini, Hodi Zarif, V.Jirmunskiy bilan hamkorlikda "O'zbek qahramonlik eposi"ni, Uyg'un A.Tolstoy ko'magida "Ona" pyesasini yaratishdi.

Bunday hamkorlik olimlar orasidayam davom qildi. Xususan, Yahyo G'ulomov Rossiyalik B.Grekov, V.Struve, K.Trever, A.Yakubovskiy, S.P., M.E.Voronets, V.A.Shishkin, shuningdek o'zimizning yurtdoshlardan T.N.Qori-Niyoziy, E.SH.Rajabov, V.I.Zohidov kabi olimlar bilan birgalikda "O'zbekiston xalqlari tarixi" asarining ikki tomligini yaratishga kirishdi. Mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan ushbu asar fundamental tadqiqot bo'lib, 1-tomning bosh muharriri S.Tolstov, maxsus muharrir esa Yag'yo G'ulomov qilib belgilangandi. Bu orada urush tugab yuqoridagi olimlar o'z yurtlariga jo'nab ketishadi.

Urushdan so'ng Yahyo G'ulomov, ko'p yillar davomida Quyi Amudaryo bo'ylarida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini umumlashtirgan holda, 1950-yili Moskvada doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqladi. Ana shu ilmiy ishi asosida 1957-yilda ruscha, 1959-yilda bo'lsa o'zbekcha "Xorazmning sug'orilish tarixi" monografiyasi yuzaga keldi. Ushbu fundamental, ilmiy akademik asar Yahyo G'ulomovning tarixshunoslikda g'oyat teran tadqiqotchi ekanligini ko'rsatdi. Chunonchi, sun'iy sug'orishga asoslangan quyi Amudaryo xalqlari hayotida obi hayotning tutgan o'rni, asrlar mobaynida u bilan bog'liq bo'lib o'tgan voqea hodisalar monografiyada haqqoniy yoritilgani sabab, asar keng shuhrat qozondi. Dunyoga mashhur Ermitaj muzeyi direktori, akademik B.B.Piotrovskiy ta'kidlaganidek, "Yahyo G'ulomovning O'rta Osiyo xo'jalik hayotining asosi hisoblangan sug'orish sohasidagi tadqiqotlari haqiqatan ham buyukdir".

Yahyo G'ulomov ushbu asarni yozish jarayonida Xorazmda o'zi va S.Tolstov o'tkazgan arxeologik ekspeditsiya natijalariga tayanibgina qolmasdan, ilgari davrda sug'orilish tarixiga, suv xo'jaligi tizimiga doir yaratilgan asarlarniyam qunt bilan o'rgandi. Aynan xonlikning bosh mirobi bo'lib ishlagan Munis, Ogahiyilar, xonlar sulolasiga mansub Bayoniy, "Turkistonning sug'orilish tarixi" va o'lka tarixiga oid yana yuzlab asarlar yozgan V.V.Bartol'd, Xorazmda bo'lib bebaho manbalar to'plagan Kaul'bars, Kun singari olimlar asarlariga e'tibor berdi.

Bundan tashqari, "Xorazmning sug'orilish tarixi" mavzusidagi doktorlik ishi va monografiyasini yozish jarayonida arab, fors tilidagi qo'lyozma asarlar, rus tilidagi kitoblardan 267 tasini o'qib o'rgandi, o'z asarida ana shu manbalardan iqtibos keltirib o'tdi.

Yahyo G'ulomov 1950-yil kuzida qadim Buxorodagi ko'hna madaniyat osori-atiqalarini izlab topish maqsadida shogirdlari Zarafshon vodiysining quyi qismiga yo'l oladi. Fanda Moxondaryo ekspeditsiyasi deya atalgan va moziy bag'ridagi ko'plab sirlarni kashf qilgan arxeologlar guruhining tadqiqot

ishlariyam natijali bo'ldi. Arxeologlar Varaxsha, Moxondaryo, Gurdush va Bujayli kabi Zarafshondan ajralib chiqqan o'zanlarda tadqiqotlar olib borib, katta natijalarga erishdilar.

Arxeologiyada katta tajriba orttirgan Yahyo aka Bujaylining quruq o'zani yoqalab Qorako'l tumanidan shimoliy g'arbda joylashgan Zamonbobo ko'liga katta umid bog'lardi. Negaki, Bujayli o'zanidagi toshqinlardan hosil bo'lgan ushbu ko'l qurib, sho'r bosib yotgan bo'lsada, o'tmishdagi ovchi-baliqchi, ibtidoiy dehqonchilik bilan shug'ullangan ajdodlarimiz uchun rizq maskani hisoblanganligi taxmin qilinardi.

Biroq dastlab arxeologlar hafta davomida ko'lning atrofida qazishma ishlarini olib borib biron natijaga erisha olmay tashvishga tusha boshlashdi. Biroq hammadan ham ko'p Yahyo G'ulomov topilmalardan umidvor edi. Domlanning sadoqatli shogirdlaridan Abdulahad Muhammadjonov bu haqda shunday yozadilar: Bunday bo'lishi mumkin emas, bu yerdan qadimgi madaniyat izlari topilishi kerak, ularni topmasdan biror qadam ham oldinga ekspeditsiya siljimaydi, degan fikrda qa'tiy turib olgan edi. Nihoyat, YA.G'ulomovning fikri to'g'ri bo'lib chiqdi.

Haftaning oxiriga borib palatkani (arxeologlarning palatkasi nazarda tutilmoqda-U.B) yonidan maydalanib ketgan suyaklar va sopol idish parchalari sochilib yotgan joy topildi. 300 kvadrat metrlik maydon zudlik bilan qumdan tozalandi.

Yaxshilab supurilgan taqir ustida diametri 1,2-1,5 metr keladigan betartib joylashgan chuqurlarning og'zi ko'zga yaqqol tashlanardi. Bu asrlar davomida bizgacha saqlanib kelgan, gumbazini shamol uchirib ketgan qadimgi qaristonning qoldiqlari- btidoiy madaniyat obidalaridan biri edi. Nihoyatda ehtiyotlik bilan go'rlar birin-ketin kavlab ochila boshlandi. Ularda qo'l-oyoqlari bukilib, g'ujanak holda ko'milgan odam skeletlari bilan birga, sopol idishlar va chaqmoqtoshdan yasalgan kamon o'qi paykonlari, turli xil toshmunchoq va marjonlar, jez zebi-ziynatlar qo'shib ko'milgan edi. Bu miloddan avvalgi ikki minginchi yillikning o'rtalarida dehqonchilik va chorvachilik bilan kun kechirgan ibtidoiy qishloq ahlining qabristoni bo'lib, fanga "Zamonbobo madaniyati" nomi bilan kiritildi".

Bunday noyob topilmalar ekspeditsiyaning keyingi yillardagi faoliyatida yana topildi. Zamonbobodan g'arbdagi Kichik va Katta Tuzkon nomlari bilan atalgan qadimiy ko'llar atrofidan miloddan avvalgi 5-3 minginchi yillarda yashagan ovchi-baliqchi aholining chaylalari o'rni topilganiyam fan uchun katta yangilik edi.

Keyinchalik bu hududlarda domlanning shogirdlaridan Ahmadali Asqarov, O'tkir Islomovlar ham tadqiqot ishlarini olib borib, tarixning yangi sahifalarini boyitdilar.

Xullas, Moxondaryo ekspeditsiyasi tufayli katta va kichik Tuzkonda neolit davriga (miloddan avvalgi 5-3 ming yillik) mansub ovchilar va

baliqchilar manzilgohi, bronza davrida (miloddan avvalgi 2 ming yillik) yashagan ko'chmanchi chorvadorlar qarorgohi, antik zamonlarga oid ashyolar, Axsikentdagi nodir topilmalar o'rganildi. Shu kabi Obirahmat, Ko'lbuloq, Takalisoyda ko'plab ibtidoiy manzilgohlar topildi. Ushbu obidalarni tadqiq qilish tufayli ibtidoiy davrda yashagan ajdodlarimiz hayoti, ibtidoiy dehqonlar yaratgan qadimgi madaniyat, urf-odatlar, e'tiqodi, xo'jalik yuritish tizimiga oid ma'lumotlar, o'zbek fanining , tarixshunosligining obro'si oshishiga xizmat qildi.

XULOSA

Yaxyo G'ulomovning ilmiy merosi O'zbekiston va Markaziy Osiyo tarixshunosligi uchun katta ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlari tarixiy manbalarni yangi metodologik yondoshuvlar asosida tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tarixshunoslik sohasida ilmiy tafakkurni rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan. G'ulomovning asarlari faqat tarixiy voqealarni yoritibgina qolmay, balki ularni ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan chuqur tahlil qilishni ta'minlagan. U o'zining ilmiy faoliyatida tarixiy jarayonlarni zamonaviy yondoshuvlar asosida tushuntirgan va ilm-fan olamida yangi yo'nalishlarni belgilab bergan. Bugungi kunda uning asarlari nafaqat tarixshunoslar, balki keng jamoatchilik uchun ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Y.G'ulomovning ilmiy merosi o'rganilayotgan tarixiy davrlarning aniq va to'liq tasvirini yaratishga, shuningdek, tarixiy xatoliklar va tafovutlarni aniqlashga imkon beradi. Uning ilmiy yondashuvlari va merosi tarixshunoslikda yangi istiqbollarni ochib beradi va zamonaviy tadqiqotlarga katta ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Annayev T., Tilovov B., Xudoyberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T.: 1999.
2. Isomiddinov M.H. Sopolga bitilgan tarix. – T.: 1993.
3. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – [Samarqand](#): 1999.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T.: 1990.
5. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T.: 2004.